

УДК.618.3-06:618.14-006.04-089.888

LEYOMIOMA BILAN KASALLANGAN HOMILADORLARDA UCHRASHI MUMKIN BO'LGAN ASORATLAR

Haydarova N.B.

Buxoro Davlat tibbiyot instituti №1 Akusherlik va ginekologiya kafedrası assistenti.

nigora_haydarova@bsmi.uz

<https://orcid.org/0009-0001-8039-0082> +998-91-441-82-92

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17602555>

Maqsad: Buxoro shahar tug'ruq majmuasining ginekologiya bo'limida davolanayotgan bachadon miomasi (leyomiomasi) bo'lgan homilador ayollarda immunologik markerlarning erta va kech akusherlik asoratlarini bashorat qilishdagi ahamiyatini baholash.

Materiallar va usullar: Tadqiqot davomida bachadon leyomiomasi tashxisi qo'yilgan 36 nafar homilador ayol tekshiruvdan o'tkazildi. Barcha bemorlarda anamnez yig'ildi, klinik-funksional baholash va molekulyar-genetik tahlillar o'tkazildi.

Natijalar: Tadqiqot natijalariga ko'ra, nazorat guruhidagi ayollarning qonidagi immunoglobulin A (IgA) miqdori o'rtacha 1.85 ± 0.12 g/l bo'lib, bu ko'rsatkich normaning 1.46–2.22 g/l oralig'ida joylashgan.

Bachadon leyomiomasi tashxisi qo'yilgan ayollarda qon zardobidagi IgA darajasi nazorat guruhiga nisbatan 1.62 marta yuqori bo'lgani aniqlandi ($p < 0.05$). Shuningdek, bemorlardagi o'rtacha IgA miqdori normaning yuqori chegarasidan 1.35 marta oshgan ($p < 0.05$).

Xulosa: Tadqiqotimizga ko'ra, bachadon leyomiomasi bo'lgan homilador ayollarda immunologik markerlarni tekshirish va tahlil qilish kasallikning rivojlanishini hamda akusherlik asoratlarini erta bashorat qilish uchun samarali usul hisoblanadi.

Immunologik monitoring faqat kasallik kechishini baholash imkonini beribgina qolmay, balki har bir bemor uchun individual yondashuv asosida profilaktik va davolash choralarini rejalashtirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: bachadon leyomiomasi, gumoral immun javob, leyomioma va homiladorlik.

Dolzarblik: Bachadon miomasi (leyomioma, fibromioma) — bachadonning mushak qatlami (miometriy)dan o'sib chiqadigan benign (yaxshi sifatli) o'sma. U silliq mushak hujayralari va biriktiruvchi to'qimadan tashkil topgan bo'ladi. Bachadon miomasi reproduktiv yoshdagi ayollarda eng ko'p uchraydigan ginekologik kasalliklardan biridir [1–4].

Kasallikning boshlang'ich bosqichlarida mioma ko'pincha alomatsiz kechadi. Biroq ko'pchilik ayollarda og'riq, charchoq, zaiflik, menorragiyalar, metrorragiyalar va surunkali kamqonlik kuzatiladi. Shuningdek, jinsiy hayotda og'riq (dispareuniya), ruhiy stress va reproduktiv funksiyaga oid xavotirlar ham uchraydi.

Bemorlik boshlangandan so'ng gormonlar (promotorlar) va o'sish omillari (effektor mexanizmlar) ta'sirida o'zgarishlar yuz beradi [5,8].

Bachadon miomasining patogenezi ko'p omilli va murakkab jarayon bo'lib, unda irsiy moyillik, gormonal ta'sirlar, immun tizimidagi o'zgarishlar va to'qima tuzilishining buzilishi muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi kunda ko'pgina olimlar immun tizimi, xususan o'sish omillarining bachadon miomasi rivojida rolini alohida ta'kidlashadi [5,7]. Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, immunologik mexanizmlar mioma va uning asoratlari shakllanishida muhim ahamiyatga ega [4,8].

Tadqiqotning maqsadi: Bachadon miomasi bo'lgan bemorlarda gumoral immun tizim faolligini baholash orqali patologik jarayonning patogenetik mexanizmlarini aniqlash.

Materiallar va usullar: Buxoro shahar tug'ruq majmuasi ginekologiya bo'limida bachadon miomasi tashxisi qo'yilgan 36 nafar ayol tekshirildi.

Bemorlarning o'rtacha yoshi 50.1 ± 4.09 yoshni tashkil etdi. UZI natijalariga ko'ra, 64% bemorda yagona mioma tugunlari, 36% bemorda esa bir nechta tugunlar aniqlandi. Bachadon hajmi 58% bemorda 4–5 haftalik homiladorlikka, 42% bemorda esa 6–9 haftalik homiladorlikka mos kelgan.

Nazorat guruhi 27 nafar sog'lom, yoshi bo'yicha o'xshash ayollardan iborat bo'lib, ularda bachadon yoki boshqa ichki a'zolarida o'sma kuzatilmagan. Barcha ayollarda immunoglobulin A (IgA) darajasi aniqlangan. IgA darajasi radial immunodiffuziya usuli orqali, aylanma immun komplekslar (TsIK) esa polietilenglikol (PEG) asosida nefelyometriya va fotokolorimetriya yordamida o'lchangan.

Muhokama: Nazorat guruhida IgA miqdori 1.85 ± 0.12 g/l bo'lib, bu norma doirasida ($1.46–2.22$ g/l). Miomali ayollarda esa IgA darajasi nazorat guruhiga nisbatan 1.62 marta yuqori ($p < 0.05$) bo'lgan.

Bemorlarning 76.6% ida IgA miqdori normadan yuqori, 23.3% ida esa norma darajasida bo'lgan. Normadan past ko'rsatkichlar aniqlanmagan.

TsIK darajasi nazorat guruhida 87.1 ± 8.2 shartli birlik bo'lib, miomali ayollarda bu ko'rsatkich normadan 1.43 marta yuqori ($p < 0.05$) ekanligi aniqlangan. Bu gumoral immun tizimi faolligining kuchayishini ko'rsatadi.

Bunday holatlar to'qima shikastlanishi, hujayra membranasi butunligining buzilishi va yadro komponentlarining qon oqimiga chiqishi bilan bog'liq bo'lib, bu autoantitanalar hosil bo'lishiga olib keladi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bachadon miomasi bo'lgan ayollarda gumoral immun tizimi faolligi oshgan bo'lib, bu IgA va aylanma immun komplekslar miqdorining ko'payishi bilan ifodalanadi.

Bu ko'rsatkichlar patologik jarayonning immunologik asoslarini anglashda muhim diagnostik ahamiyatga ega.

Bachadon miomasi homiladorlik paytida nafaqat anatomik-fiziologik, balki immunologik omillar bilan ham bog'liq.

Bunday holatlarda sitokin disbalansi va mahalliy immun tolerantlikning yetarli shakllanmasligi homila rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa fetoplatsentar yetishmovchilik, preeklampsiya va erta tug'ruq xavfini oshiradi.

Adabiyotlar

1. Narzullaeva, N. S., Musakhodzhaeva, D. A., Abdurakhmanov, M. M., & Ikhtiyarova, G. A. (2019). CYTOKINE DYNAMICS AS A RESULT OF PHYTO FLAVANOID

- EXPOSURE IN WOMEN WITH UTERINE MYOMA. Russian Journal Of Immunology, 22(2-1), 435-437. doi: 10.31857/S102872210006922-9
2. Narzullaeva N.S., Musakhodzhaeva D.a., abdurakhmanov M.M., Ikhtiyarova G.a. CYToKINE DYNaMICS aS a RESULT oF PHYTo-FLaVaNoID EXPoSURE IN WoMEN WITH UTERINE MYoMa // Russian Journal of Immunology. - 2019. - Vol. 22. - N. 2-1. - P. 435-437. doi: 10.31857/S102872210006922-9
 3. Narzullaeva, N. S. (2021). Gynecological and somatic history of women with uterine myoma according to retrospective analysis. *Акуш., гинекол., перинатол.*, (2), 86.
 4. Narzullaeva, N. S., Ixtiyarova, G. a., & Sh, B. a. (2022). Clinical and Immunological aspects of Leiomyoma with Endometritis. *Central asian Journal of Medical and Natural Science*, 3(4), 301-305.
 5. Narzullaeva, N. S. (2022). INNoVaTIVE METHoDS oF DIAGNoSIS aND TREaTMENT IN WoMEN WITH INFERTILITY aSSoCIaTED WITH UTERINE FIBRoIDS. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 3313-3321.
 6. Song H., Lu D., Navaratnam K. et al. aromatase inhibitors for uterine fibroids // *Cochrane Database Syst Rev.* - 2013. - Vol. 10:CD009505.
 7. Абрамова С.В., Миронова И.Н., Курганова О.Ю. и др. Клинико-эпидемиологические аспекты миомы матки (обзор литературы) // *Бюллетень науки и практики.* –2018. –Т. 4, № 4. –С. 69-74.
 8. Агабабян Л.Р., Хамзаев Ф.И. Метаболические показатели у женщин с миомой матки на фоне избыточной массы тела // В сборнике: Достижения вузовской науки 2018. Сборник статей II Международного научно-исследовательского конкурса. – М., 2018. –С. 224-227.